

QARDOSH TILLAR TA’LIMI VA TADQIQIGA INKLYUZIV YONDASHUVDA SHAKLDOSH SO’ZLAR MULTIMODAL LUG’AT DASTURINING ZARURATI

Qurbonova Munavvara Abduljabborovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori (DSc)

E-mail: munavvara2013@yandex.ru

Tel: +99897 7227125

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21200183>

Annotatsiya: Ushbu maqola turk va o‘zbek tilida shakldosh, talaffuz va ma’no jihatdan farqlanuvchi leksik birliklarni o‘zlashtirish, nutqiy muloqot va tarjima jarayonida ulardan foydalanish bilan bog‘liq muammolarning inklyuziv yechimiga bag‘ishlangan. Unda bu boradagi orfoepik va semantik chalkashliklar, kommunikativ to‘siqlarni bartaraf etish maqsadida yaratilgan interfaol lug‘at dasturining vazifaviy imkoniyatlari xususida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: shakldosh so‘z, multimodal lug‘at, matn, audiokontent, tifloizoh, inklyuziv ta’lim, raqamli leksikografiya.

Аннотация: Настоящая статья посвящена инклюзивному решению проблем, связанных с освоением омонимичных лексических единиц в турецком и узбекском языках, различающихся по произношению и значению, а также с их использованием в процессе речевой коммуникации и перевода. В ней рассматриваются функциональные возможности интерактивной словарной программы, созданной с целью устранения орфоэпических и семантических неточностей и преодоления коммуникативных барьеров.

Ключевые слова: омоним, мультимодальный словарь, текст, аудиоконтент, тифлокомментарий, инклюзивное образование, цифровая лексикография.

Abstract: This article is dedicated to an inclusive approach to solving problems related to the mastery of homonymous lexical units in the Turkish and Uzbek languages, which differ in pronunciation and meaning, as well as their use in speech communication and translation. It examines the functional capabilities of an interactive dictionary program created to eliminate orthoepic and semantic inaccuracies and to overcome communication barriers.

Keywords: homonym, multimodal dictionary, text, audio content, typhlocommentary, inclusive education, digital lexicography.

Turk-o‘zbek muloqot matnining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishda ikki tilli lug‘atlar muhim leksikografik material sifatida xizmat qiladi. Ularda qayd qilingan leksik birliklarning muayyan qismini tillararo shakldosh va shaklan o‘xshash so‘zlar tashkil etadi. Biroq ular talaffuz jihatdan muayyan darajada tafovutga egadir. Bu turdagi so‘zlarga xos farqlovchi belgilar nafaqat talaffuz, balki ma’no ifodasida ham o‘z aksini topadi. Chunki turk va o‘zbek tillari o‘rtasidagi omonim hamda shaklan o‘xshash so‘zlar ifodasi ma’no qirralariga ko‘ra yoki semantik jihatdan butunlay farqlanishi mumkin. Jumladan, **muz** [1: 104] so‘zi bunga misol bo‘la oladi:

Turk tilida:	O‘zbek tilidagi tarjimasi:	O‘zbek tilida:	Turk tilidagi tarjimasi:
<i>muz</i>	<i>banan</i>	<i>muz</i>	<i>1.Buz</i>



			2.(Buz gibi) soğuk 3.Soğuk, nahoş, sevimsiz 4.İlgisiz
--	--	--	--

Bu esa o‘z navbatida ularni o‘zlashtirish hamda nutqiy faoliyatga tatbiq etish jarayonlarining birmuncha murakkab kechishiga sabab bo‘ladi. Shunga ko‘ra tadqiqotlarda bu turdagi birliklar “soxta do‘stlar”, “soxta ekvivalentlar” (Qorado‘g‘on, Erso‘y, Ertug‘, O‘zeren), “o‘xshash so‘zlar” (Sultonzoda), “soxta muqobillar”, “shartli tengdoshlar” (Rasulov), “muloqotni qiyinlashtiruvchi so‘zlar” (O‘zkan), “omonim so‘zlar” (Ilker), “teng nomli so‘zlar” (Sultonzoda), “tuzoq so‘zlar” (Musso) [2: 20], “aldoqchi so‘zlar” (Berdaq Yusuf) [5: 3] deb ataladi. Sh.Atamuradov mazkur tushunchani “chalg‘ituvchi so‘zlar” atamasi bilan ifodalashni taklif etadi va buning sababini nutqiy muloqot jarayonida o‘zga tilga oid muayyan so‘z yoki ifodaning kishi ongida assotsiativ tarzda o‘xshash so‘z yoki ifodani hosil qilishi va dabdurustdan ishlatib yuborilishi, muloqot ishtirokchilarining ko‘pincha bunday so‘zlarga chalg‘ib qolishi bilan izohlaydi [2: 21-22].

Bizningcha, turk va o‘zbek kabi qardosh tillar o‘rtasida shakldoshlik omili ta’sirida yuzaga keluvchi semantik chalkashlik, pragmatik to‘siqning (bayon qilinishi lozim bo‘lgan propozitsiyaga to‘siq bo‘luvchi, uning mazmunini xiralashtiruvchi hamda so‘zlovchining fikrlash va talaffuzi bilan aloqador hodisa) [3: 155] oldini olish, bu boradagi muammolarning innovatsion yechimida raqamlashtirilgan leksikografik manbalar alohida o‘rin tutadi. Shuni e’tiborga olgan holda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Inklyuziv ta’lim ilmiy-amaliy laboratoriyasi faoliyati doirasida “Turkcha-o‘zbekcha shakldosh so‘zlar multimodal lug‘ati” yaratilib, mobil ilova ko‘rinishida Google play platformasi [4] orqali foydalanuvchilar e’tiboriga havola qilindi. Dasturning ma’lumotlar bazasini tayyorlashda Sh.Atamuradov muallifligidagi “Turkcha-o‘zbekcha chalg‘ituvchi so‘zlar lug‘ati”dan o‘rin olgan shakldosh birliklar va ularning tarjimalaridan [1: 160] material sifatida foydalanildi. Chunki bu lug‘atga nafaqat talabalar, tadqiqotchilar, pedagoglar, tarjimonlar, balki keng jamoatchilik uchun ham foydali bo‘lgan leksik birliklar kiritilgan.

Tadqiqotning maqsadi mobil ilova vositasida lug‘at maqolalarini matn va ovoqli ifoda uyg‘unligida, foydalanuvchiga qulay, tushunarli, inklyuziv tarzda taqdim etishdan iborat bo‘lib, bunda turk va o‘zbek tili o‘rtasidagi shakldosh so‘zlar semantikasini to‘g‘ri idrok etish, farqlash, tarjima va talaffuz qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga e’tibor qaratilgan. Chunki bu kabi interfaol lug‘atlar yordamida foydalanuvchi har ikkala til materiallarini osonlik bilan qabul qiladi, tushunadi va eslab qoladi.

“Turkcha-o‘zbekcha shakldosh so‘zlar multimodal lug‘ati” mobil ilovasi boshqa ikki tilli elektron lug‘at dasturlaridan farqli ravishda tillararo omonim so‘zlarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq muammolar yechimi uchun mo‘ljallangan dasturiy mahsulot sifatida foydalanuvchiga so‘zning yozilishi, tarjimasi, talaffuzi va qaysi tilga mansubligini birgalikda idrok etish imkonini beradi. Dastur audiokontenti tifloizohlar bilan boyitilgan bo‘lib, bu qismda turk tilidagi har bir so‘zlikdan oldin “turk tilida”, uning o‘zbek tilidagi tarjimasidan oldin “o‘zbek tilidagi tarjimasi”, shuningdek, o‘zbek tilidagi har bir so‘zlikdan oldin “o‘zbek tilida”, uning turk tilidagi tarjimasidan oldin “turk tilidagi tarjimasi” tarzidagi ovoqli ko‘rsatmalar qayd etilgan. Mazkur tiflosharhlar foydalanuvchiga ayni vaqtda qaysi tilga oid so‘z va qaysi tilga oid tarjima eshittirilayotganini aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan foydalanuvchilar uchun yuqoridagi kabi yo‘naltiruvchi

audioizohlar nihoyatda dolzarbdir. Tadqiqot uchun material sifatida foydalanilgan manbada [1: 160] qayd etilgan qisqartmalar ushbu multimodal lug‘at matnida ham ayni shaklda saqlangan, audiokontentda esa kengaytirilgan holda aks ettirilgan. Bunday ovoqli kengaytmalar ayniqsa, audioformatdagi materiallardan foydalanuvchi shaxslar uchun nihoyatda zarurdir. Chunki qisqartmalar ayni shaklda ovoqlashtirilsa, ularning ma’nosi barcha foydalanuvchilar uchun tushunarli bo’lmasligi mumkin. Kengaytirilgan ovoqli ifoda esa axborotni to’liq qabul qilishga yordam beradi.

Ushbu mediamahsulot qiyosiy tilshunoslik, tarjimashunoslik, leksikografiya, turkiyshunoslik va til ta’limi uchun tayanch manba vazifasini bajaradi, nutqiy muloqot hamda tarjima jarayonida yuzaga keluvchi shakldosh so’zlar talaffuzi bilan bog’liq xatolar, semantik noaniqliklar, kommunikativ to’siqlarni bartaraf etishda muhim leksikografik manba sifatida xizmat qiladi. Ilova multimodal leksikografiya tajribasini rivojlantirishga ham hissa qo’shadi. Unda yozma ravishda ifodalangan birlik, tarjima, talaffuz va qo’shimcha ovoqli izohning muayyan tizimga birlashtirilgani lug‘at tuzishning zamonaviy usullarini takomillashtirish imkonini beradi.

Mazkur dastur ko’rish bo’yicha nogironligi bo’lgan foydalanuvchilar uchun mo’ljallangan nutq sintezatorlari (matnni ovozga aylantiruvchi dastur) bilan birgalikda ishlashga moslashtirilgan. Multimodal lug‘at maqolalari mobil ilova kontentiga bir-biridan ajratilgan holda joylashtirilgan. Bu esa o’z navbatida foydalanuvchilarga lug‘at materiallarining kerakli qismini topishni osonlashtiradi. Foydalanuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida mobil ilovaga kerakli so’zni tez fursatda izlab topish imkonini beruvchi qidiruv funksiyasi ham kiritilgan. Unda dastur mualliflari haqida ma’lumot olish, ilovani boshqa foydalanuvchilarga ulashish va uni baholash, fikr-mulohaza bildirish uchun ham alohida bo’limlar ajratilgan. Shu jihatdan “Turkcha-o’zbekcha shakldosh so’zlar multimodal lug‘ati” mobil ilovasi zamonaviy raqamli leksikografiya taraqqiyoti, inklyuziv ta’lim va qardosh tillar o’rtasidagi muloqot ehtiyojlariga xizmat qiladigan muhim dasturiy mahsulot hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Atamuradov Sh. Turkcha-o’zbekcha chalg’ituvchi so’zlar lug‘ati. – Toshkent: Qamar Media, 2022. – 160 b.
2. Atamuradov Sh. O’zbek-turk muloqot madaniyatida pragmatik to’siqning ifodalanishi: Filol. fan. b. fals. d-ri ... diss. – Toshkent, 2024. – 132 b.
3. Ҳақимов М. Ўзбек прагматингвистикаси асослари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013. – 176 б.
4. Qurbonova M., Atamuradov Sh., Mirnosirova D., Anvarova D., Hamidov S. Turkcha-o’zbekcha shakldosh so’zlar multimodal lug‘ati. Mobil ilova. https://play.google.com/store/apps/details?id=hamroev.uz&pcampaignid=web_share
5. Yusuf B. Turkcha-o’zbekcha “aldoqchi” so’zlar lug‘ati. – Toshkent: Voris-nashriyot, 2009. – 647 b.